

MA'NAVIYAT MANBAI



Mamlakatimiz aholisi- ning asosiy qismini yoshlar tashkil etadi.

Savol tug'iladi: bu yoshlar chindan ham hozirda kitob mutolaasi bilan shug'ullanyaptimi?

Shunday ekan, kitob o'qish ko'rsatkichlari ularda yuqori bo'lishi kerak. Bizni afsuslantirgani shuki, yoshlar bilan so'rov o'tkazilganda ularning ko'p qismi elektron kitoblarni yaxshi va qulay ekanligini aytishdi. Aslida, kitob qay holatda bo'lishidan qat'iy nazar o'qilishi kerak.

Kitob o'qishni o'ziga odat qilganlar keng dunyoqarashni o'zlarida shakllantiradi. Siz bir kitobni boshlar ekansiz go'yo uning ichida yashaganday tasavvurda bo'lasiz. Qahramonlar kula kulasiz, yig'lasa yig'laysiz, ular nima yesa siz ham yeysiz. Eng muhimi, siz ular qiyofasida o'zingizni ko'rasiz. Bunday holat inson irodasini mustahkamlab, fikr olamini kengaytirib yuboradi.

Mutaxassislar fikricha, kamida har kuni bir yoki ikki soat kitob mutolaasi

inson miyasiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatib, dam oldirar ekan.

Darhaqiqat, kitob beradigan energiyani hech qaysi gadjet va buyumlar berolmaydi. Unda quvvat tugamaydi, hammasi insonning o'z qo'lida bo'ladi.

Xulosa shuki, kitob mutolaasi biz uchun muhim ekan.

Malika RAHMONOVA

JURNALISTIKA FANMI YOKI IJOD?

Jurnalistika insoniyat hayotining ajralmas qismiga aylangan soha bo'lib, uning mohiyati haqida turlicha fikrlar mavjud.

Jurnalistika axborotni yig'ish, tahlil qilish, saralash va taqdim etishning muayyan qoidalari va metodlariga asoslangan fan hisoblanadi, boshqa tomondan, jurnalistika voqealarni

nafaqat yetkazish, balki ularni odamlar uchun ta'sirli va tushunarli tarzda ifoda etishdir. Bu esa kishidan ijodkorlikni talab qiladi.

Bir so'z bilan aytganda, jurnalistika bu – fan va ijodning mukammal uyg'unligidir.

Hikmatullo TOHIROV

AYT, O'ZBEGIM!

Qani Cho'lpon, Behbudiyalar, Qodiriylar? Adibingga o't tushdimi, ayt, o'zbekim?! Yondashuvlar botiniymas, zohiriylar, Kitobingga o't tushdimi, ayt, o'zbekim?!

Tokchalarda do'ppi bilan changda qoldi, Jaholatdan ahvolimiz tangda qoldi, Yoki asl asarlaring jangda yondi, Kitobingga o't tushdimi, ayt, o'zbekim?!

Yozguvchilar chayqovchiga o'xshab ketar, Tarix bilan yashab, suyak qaqshab ketar. Biz yashadik, kelajak ham yashab ketar, Kitobingga o't tushdimi, ayt, o'zbekim?!

Qayda qoldi jadidlarim ko'zlagan yo'l, Xalqni uyg'otmoqlik uchun so'zlagan dil, Avval sotib keyin otib bo'zlagan yo'l? Xitobingga o't tushdimi, ayt, o'zbekim?!

Sart, dedilar chidab berding ko'ksing tutib, Hormadingmi, yov qilmishin ichga yutib, Tag'in yordam so'rab kelsa noning tatib, Oftobingga o't tushdimi, ayt, o'zbekim?!

Yonib ketgan kitoblarning kuli qoldi, Jadid bobom, o't qoplagan yo'li qoldi, Yangi kunda, o'sha eski so'zi qoldi. Kitobingga o't tushdimi, ayt, o'zbekim?!

Bobur BAHODIROV

IJTIMOYIY TARMOQLAR

U inson ongiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

“XXI asr axborot va texnologiyalar asri”. Biz hozirgi hayotimizni elektron qurilmalar, ijtimoiy tarmoq, gadjetlar, umuman olganda, internetsiz tasavvur qila olmaymiz. Negaki, ular axborot va ma'lumotlar manbai hisoblanadi. Shu bilan birga, og'irimizni yengillashtirayotgani ham bor gap.

Ijtimoiy tarmoqlarda insonlar o'zaro suhbatlashadi, ma'lumot almashishadi, yangiliklardan boxabar bo'lishadi. Telegram, Whatsapp, You Tube, Twitter, TikTok, Facebook, Instagram kabilar shular jumlasidan.

Har bir narsaning ijobiy va salbiy jihatlari bo'lganidek, ijtimoiy tarmoqlar ham foydali va zararli xususiyatlarga ega. Ma'lum bir soha yoki fanni bepul o'zlashtirish imkoni, ma'lumotlarni tez va oson olish hamda tarqatish xususiyati, SMM mutaxassisi, o'qituvchi-bloger bo'lib ishlash imkoniyati ijtimoiy tarmoqning foydali tomonlari hisoblanadi. Onlayn qimor, xakerlik orqali pullarning, ma'lumotlarning noqonuniy o'zlashtirilishi, ma'lum bir diniy oqimlarning qonunda taqiqlangan saytlarning, odob-axloq qoidalariga to'g'ri kelmaydigan kontentlarning tarmoqda mavjudligi uning salbiy jihatlari.

Hozirgi kunda insoniyatning eng og'irli nuqtalaridan biri ham ana shu ijtimoiy tarmoqning yoshlarimiz uchun salbiy tomonlaridir. Negaki, hozirda ko'pchilik odamlar, ular orasida

bolalar va o'smirlar ham ijtimoiy tarmoqlardan foydalanmoqda. Zararli saytlar, videolar



foydalanuvchilarning ongini zaharlab, hayotda adashishlariga va hatto o'limga ham olib kelyapti. Xakerlarning yolg'onlariga aldanib, chuv tushib qolayotganlar ham talaygina.

Ijtimoiy tarmoqlar oltindan qimmat

vaqtimizni ham o'g'irlyapti. Ma'lumotlarga ko'ra, bir inson o'rtacha hisobda kuniga 2,5 soat ijtimoiy tarmoqlardan foydalansa, bu bir yilda 38 kun - 912,5 soatni tashkil etar ekan. Agar 3 soatdan foydalansa, bu yiliga o'rtacha 1095 soat - 45,6 kun degani! Demak, biz bir yilda 1-1,5 soat vaqtimizni ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishga sarflar ekanmiz. Endi bir o'ylab ko'raylik, agar o'sha vaqtimizni foydali mashg'ulotlar bilan o'tkazsak yomonmi? Ammo shunchaki vaqt ketkazish, ko'ngilxushlik uchun sarflasak, bu kamida 1 oy vaqtimiz behuda o'tdi degani, shunday emasmi? Shunda 60 yil yashagan inson 5 yil umrini suvga oqizgan bo'ladi.

Odamlar, ijtimoiy tarmoqlar vaqtimizni, sog'lig'imizni, o'zligimizni bizdan tortib olishiga yo'l qo'ymaylik. Zero, xalqimizda “So'ngi pushaymon - o'zingga dushman”, degan dono naql bor.

Muyassarbonu SIROJIDDINOVA

YANGI RENESSANS

IJTIMOYIY-TA'LIMIY, MADANIY-MA'RIFIY GAZETA

2025-yil, 14-noyabr, №1(1) www.samdhti.uz E-mail:intellektinfo@inbox 2025-yildan chiqa boshlagan

XUSH KELIBSAN, “YANGI RENESSANS”!

Hurmatli talabalar, qadrlil o'qituvchilar, xodimlar va institutimizning aziz jamoasi!

Bugun biz yangi bir muhim yutuq sari qadam qo'yayotganimizni faxr bilan ta'kidlashni istardim. Samarqand davlat chet tillar instituti talabalari va ustozlari uchun mo'ljallangan “Yangi Renessans” gazetasi birinchi soni chop etildi.



Bu gazeta nafaqat bizning institutimizning madaniy, o'quv va ilmiy hayotini yoritish bilan birga, bo'lajak jurnalistlar uchun ajoyib amaliyot maydoni bo'ladi. Talabalarimiz bu gazeta orqali jurnalistika sohasidagi ko'nikmalarini rivojlantirishadi, va shu bilan birga, o'zlarining ijodiy imkoniyatlarini yanada kengaytiradilar.

“Yangi Renessans” gazetasi nafaqat o'qish va ilmiy yutuqlarni, balki institutimizda bo'lib o'tayotgan turli madaniy va ijtimoiy tadbirlarni ham keng yoritib boradi. Bu gazetaning har bir soni institutning yangiliklari va yutuqlarini o'quvchilarga yetkazish, jamoani axborot bilan ta'minlashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, jurnalistika fakulteti talabalarining nazariy bilimlarini amalda sinovdan o'tkazish uchun ajoyib imkoniyat yaratadi. Bu jarayon, albatta, talabalarimizni nafaqat qalami o'tkir jurnalistlar, balki samarali va mas'uliyatli mutaxassislar bo'lib yetishishiga yordam beradi. Gazetada har bir maqola, har bir lavha – bu talabalarining yurtimizning kelajagini yaratishda qanday hissalar qo'shishlariga oid o'z fikrlarini va ijodiy yondashuvlarini namoyon qilish imkoniyatidir.

Men barcha talabalarga, o'qituvchilarga va gazeta tahririyatiga o'z ishlarida muvaffaqiyatlar tilayman. Umid qilamanki, “Yangi Renessans” gazetasi institutimizda yanada yangi ufqlarni ochadi va talabalarimizning ijodiy salohiyatini to'liq ro'yobga chiqaradi.

Bahodir XOLIQOV,
Samarqand davlat chet tillar instituti rektori

Poytaxtimizdan “Ma'rifat ulashib” tadbiriga tashrif buyurgan tanikli ijodkorlar – Ashurali Boymurod, Dilfuza Shomalikova va Niyatullo Meliqulovlar institut rektori Bahodir Xoliqov tomonidan kutib olindi.

MA'RIFAT NURI – IJOD MANBAI

Tadbir ezgu ramz bilan boshlandi. Mehmonlar institut hovlisida ko'chat o'tqazishib, yashil kelajakka o'z hissalarini qo'shishdi. Shundan so'ng ijodkorlar bilan ma'naviy-ma'rifiy uchrashuv tashkil etildi. Unda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yoshlar siyosati, ularning ta'lim va ijod yo'lidagi yu-



kil etilgan “Zakovat” intellektual o'yinida institut rektori ham ishtirok etib, ishtirokchilarga qiziqarli savollar berdi.

Shuningdek, tadbirda ishtirok etgan ijodkorlar



tuqlari, shuningdek, milliy qadriyat va ma'naviyatning yoshlar hayotidagi o'rni va ahamiyati haqida samimiy fikrlar bildirildi.

Tadbir mushoiraga ulanib, she'r, so'z va ruhiyat uyg'unligida davom etdi. Loyiha doirasida tash-

asarlari asosida onlayn viktorina, “Munozara” klubi uchrashuvlari, davra suhbatlari, sport bellashuvlari hamda turli ko'rik-tanlovlar o'tkazildi.

SamDCHTI
Axborot xizmati

YANGI RENESSANS
Muassis:
Samarqand davlat chet tillar instituti

Muharrir: Muxlisa Ubaydullayeva
Tahrir hay'ati: B.XOLIQOV, E.MUSURMONOV, X.XAYRULLAYEV, U.XUSANOV, H.JO'RAYEV
Manzil: Samarqand shahri, Gagarin ko'chasi 43-uy

Gazeta Samarqand davlat chet tillar instituti Ilmiy kengashi qarori asosida ta'sis etilgan. Gazeta instituti jamoasi uchun mo'ljallangan.

Gazeta institut “Tahrir-nashriyot” bo'limida 75 nusxada chop etildi.

HAMKORLIK UFQLARI



SamDCHTIda Ispaniyaning YUNESKO huzuridagi doimiy vakili janob Miquel Oktavi hamda uning ta'lim bo'yicha maslahatchisi Alfredo Sancho Guardia tashrif buyu rishdi. Mehmonlarni Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektori J.Nasrullaev kutib oldi. Uchrashuvda Ispaniya oliy ta'lim muassasalari bilan ilmiy, madaniy va ta'limiy alo-

qalarni yanada kengaytirish, ispan tili, adabiyoti va madaniyatini chuqur o'rganish imkoniyatlarini kengaytirish masalalari muhokama qilindi. Tomonlar o'rtasidagi tarixiy rishtalarni chuqur tadqiq etish, xususan, Amir Temur davri bilan bog'liq merosni o'rganish hamda Rui González de Klavixoni yozib qoldirgan bitiklarni tadqiq etish bo'yicha qo'shma ilmiy loyihalar ishlab chiqilishi rejalashtirildi. Uchrashuv yakunida talaba va professor-o'qituvchilar almashinuvi, qo'shma seminar va anjumanlar, ispan tili o'qituvchilari uchun malaka oshirish dasturlarini yo'lga qo'yish bo'yicha kelishuvlarga erishildi.

Asilbek ABDURAIMOV

Samarqand davlat chet tillar institutida Ipak yo'li universitetlari xalqaro tarmog'i (SUN - Silk-Road Universities Network) X Bosh Assambleyasining forumi bo'lib o'tdi.

10 YILLIK HAMKORLIK VA TARAQQIYOT

Ushbu nufuzli forumda dunyoning 30 dan ortiq yetakchi xalqaro universitetlaridan tashrif buyurgan professor-o'qituvchilar, talabalar hamda SamDCHTI vakillari ishtirok etishdi. Tadbirni institutning Yoshlar masalalari va ma'naviy-



ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektori A.Qurahmedov kirish so'zi bilan ochib berdi. Ipak yo'li universitetlari tarmog'i tashkil topganining 10 yillik yubiley tantanalari doirasida o'tkazilgan forumda tarmoqqa a'zo oliygohlar rektorlari bilan bir qatorda, tinchlik bo'yicha Nobel mukofoti sohibi Dr. Adam French janoblari ham ma'ruza

qildi. Ularning chiqishlari ishtirokchilarda chuqur taassurot qoldirdi.

Kunning ikkinchi yarmida Direktorlar Kengashining yillik yig'ilishi o'tkazilib, o'tgan 10 yillik faoliyat sarhisob qilindi va kelgusidagi rejalar belgilab olindi. Forum doirasida tashkil etilgan Xalqaro talabalar konferensiyasi esa yoshlar uchun ilmiy fikr almashinuvi, innovatsion takliflar taqdimoti hamda xalqaro tajriba almashish maydoniga aylandi. Tarmoqqa a'zo oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan iqtidorli talabalar o'z ilmiy maqola, tezis va ratsionalizatorlik takliflari bilan faol ishtirok etishdi.

Bu kabi tadbirlar institutning xalqaro aloqalarini mustahkamlashga, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ahror RUSTAMOV

HALOLLIK — EZGU QADRIYAT

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tegishli chora-tadbirlar rejasiga muvofiq oliy ta'lim tashkilotlarida korrupsiya holatlarining oldini olish va barvaqt aniqlash bo'yicha qator vazifalar belgilab berilgan. Shu munosabat bilan professor - o'qituvchilar hamda xodimlar orasida korrupsiyaga oid huquqbuzarlik harakatlari so'dir etilishining oldini olish va o'z vaqtida aniqlash hamda yoshlarda korrupsiyaga qarshi immunitetni shakllantirish maqsadida Samarqand davlat chet tillar institutida profilaktik tadbir o'tkazildi.

Unda yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor A.Kuraxmedov, rektor maslahatchisi Z.Mamaraimov, Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplaens nazorat" tizimini



boshqarish bo'limi boshlig'i S.Tursunov, yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi xodimlari, dekan o'rinbosarlari, tyutorlar, psixolog va xotin-qizlar kengashi a'zolari ishtirok etishdi.

Tadbirda O'zbekiston Respublikasida keyingi yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi va "Manfaatlarni to'qnashuvi to'g'risida"gi qonunlar, Jinoyat va Ma'muriy kodekslardagi sohaga aloqador moddalar mazmun-mohiyati, odob-axloq va ichki tartib-qoidalarini tushuntirilib, korrupsiyaga qarshi kurashishda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning o'rni haqida tushunchalar berildi.

SamDCHTI Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi

Bulung'ur tumani "Bog'bon" mahalla fuqarolar yig'iniga qarashli Bot-bot qishlog'ida 2600 nafardan ziyod aholiga "Do'stlik" oilaviy tibbiyot punkt filiali jamoasi tibbiy xizmat ko'rsatib kelmoqda.

OLISLARDA QOLGAN QISHLOG'IM...

Bu tibbiy xizmat punkti Bot-bot qishloq ahli tomonidan 1960-yilda hashar yo'li bilan qurilgan. Qishloq ahli bilan gaplashdim. Ular qishloqdagi tibbiy punktga borish juda qiyinligini, to'g'ridan to'g'ri jamoat transport yo'qligini, u yerga borguncha tuman poliklinikasiga borish osonligini aytishdi. Shuningdek, bemorlar uchun bu tibbiyot



punktida birinchi yordam uchun hech qanday tibbiy asbob-uskuna yo'qligini, bino devorlari nurab aholiga xizmat ko'rsatish uchun yaroqsiz holga kelib qolganligini ta'kidlashdi.

Tibbiy punkt xodimlari jihozlar yetishmasligini va eng asosiysi, aholiga kam bo'lsa-da, xizmat ko'rsatib kelayotgan qishloq tibbiyot punkting kadastr hujjatlari yo'qligi aytishdi. Shu mavzu bo'yicha mahalla oqsoqoli bilan suhbatlashdik.

U vaziyatga shunday oydinlik kiritdi: "Biz bu muammo bo'yicha hali hech qanday tashkilotga ariza bilan chiqmadik, faqat mahalla faollarini bunga yo'naltirdik. Bu bo'yicha har yig'ilishda mahallamiz nuroniysi va faol keksalarimizdan biri Boboqul bobo Haqqulov bu masalani ko'tarib chiqadi.

Boboqul Haqqulov bilan suhbatimizda tibbiyot punktini kadastr qilish va qayta qurish bo'yicha 3 oy oldin mahallaning faol keksalari - Shukur Haydarov, Yorbek Hasanov bilan birga Bulung'ur tumani hokimligiga ariza bilan chiqqanligi, bu masala yechimi bo'yicha tuman hokimligi moliya bo'lim xodimi Temur Toshkentboyev harakat qilishini va tez orada masala yechim topishini aytgan. "Ariza topshirilganidan keyin Temur Toshkentboyev Boboqul bobo xonadoniga kelgan, ammo muammo hanuz yechilgani yo'q", deya ta'kidlaydi otaxon.

Vaziyatni kuzatamiz. Mutasaddilar masalaga yechim topishiga ishonamiz.

Muxlisa DANAQULOVA

To'ylardagi qiziq urf-odatlar barchamizga tanish. Lekin azada ham o'ziga xos irim-sirimlar borligini bir tazyada qatnashganimda bildim.

Avvalo, o'sha yerda ayollar orasida turarkanman, marhumning qanday inson bo'lganligidan tashqari qolgan barcha ma'lumotlar, masalan, falonchining uyida janjal ko'tarilib, pistonchi haliyam ajrashmagani-yu bozordagi narx-navogacha barchasidan xabardor bo'ldim. Bundan tashqari, ta'ziya bildirish uchun kelganlarning oldiga marhum yaqinlarining birdan dod-faryod solib chiqishi yurakni yorgudek edi. Ayniqsa, shuncha payt oqmagan ko'z yosh tomchilarining bir lahzada kelishini ko'rib shuncha yil aktyorlikka o'qib, sahnada rol ijro etib yurganlar bunday "mahoratga" qarsak chalmaslikdan boshqa iloji qolmasligini angladim.

Nima emish, qattiq yig'lagan dod solgan odam marhumni eng yaxshi ko'rgan, qadrlagan inson



hisoblanarkan. Shuning uchun ayollar kim ko'p dod solishga "musobaqalashar" ekan-da. "Qiziq" voqealarga tomoshabin bo'lib kuzatib turib, yana bir og'izni lang ochadigan holat - marhumni so'nggi manzilga jo'natishdan oldingi poklangan suvini bo'lishib olayotgan xotinlarga ko'zim tushdi. Ajabo, bu suvning qanday foydali xususiyatlari borki, shunchalar qadrlidi bo'lsa yoki tibbiyotimiz xabar

Zaynab qanday obraz?



Zaynab - o'z qalbining iztiroblari va armonlarini o'z taqdiriga chizib yozgan qahramon. Bu uning "O'tkan kunlar" romanidagi fojiali qismatining yorqin ifodasidir.

O'zbek adabiyotining durdona asari hisoblangan "O'tkan kunlar" - milliy ruh va tarixning yorqin ifodasi bo'lib, 1925-yilda Abdulla Qodiriy tomonidan yozilgan.

Asarning bosh qahramonlari Otabek, Kumush, Zaynab va Yusufbek hoji bo'lib, ular o'ziga xos xarakter va hayotiy qismatlari bilan o'sha davr odamlari hayotini aks ettirishgan. Bu asar orqali biz Otabek va Kumushning sof va sadoqatli muhabbatiga guvoh bo'lamiz.

Ularning sevgisi o'quvchi tomonidan ijobiy baholanadi. Ammo, shu bilan birga, ko'pchiligimiz Zaynabni yomon ko'ramiz. Nega? Zaynabning bu yerda aybi nima? U ham

boshqalar kabi baxtli bo'lishni xohlaganimi yoki qalbidagi muhabbatga intilishimi? Bu savollar Zaynabning murakkab xarakterini tushunishda muhim o'rin tutadi. Lekin mening nazarimda bu yerda Zaynabning aybi yo'q. Uning muhabbatga, baxtli oilaga bo'lgan intilishlari noto'g'ri yo'ldan borgani uchun, fojiali oqibatlariga olib keldi.

Shu nuqtayi nazardan, Zaynabning aybi har doim aniqlanmaydigan savolga olib keladi. Uning taqdiri va histuyg'ulari o'quvchilarda nafaqat nafarat, balki achinish hissini ham uyg'otadi.

Zaynabning xatolari bizga shuni anglatadiki, ba'zan insonlar o'z orzulariga erishish uchun noto'g'ri yo'llarni tanlaydi va bu tanlov hayotlarini yomon tomonga o'zgartiradi.

Farangiz SHAMSIYEVA

IRIM-SIRIMLAR VA ODATLAR

topmagan shifobaxsh jihatlari bormikan-a, deb o'ylab qolasan kishi.

Bunisi ham mayli, o'zbekning tazyasi ham borgan sari to'ydek bo'lib ketyapti. Sababi, to'yda kelin kuyovning baxti emas, sarposi birinchi masala bo'lganidek, ta'ziyada mayit emas, azaning qanday o'tishi muhim bo'lib bormoqda. Qimmatbaho material-u matolarni talashayotgan, kamgina narsa qilgani uchun mayitning qarindoshlari orqasidan gapirayotgan xotinlar, qancha odam kelganligini muhokama qilgan, "ko'rgazma"ni kattaroq qilib o'tkazishni buyurayotgan erkaklar! Eh, bunday holatlarni ko'rib hozirda kishilar yaxshi odam bo'lib nom qoldirishni emas, balki ta'ziyasini qanday o'tkazishni o'ylab, boshi qotayotgan bo'lsa ajabmas...

Madina MIYTANOVA